



PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2021



SOMONIYLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMI VA MAZMUNI

Maqolada Somoniylar davrida ta’lim va tarbiya tizimi hamda maktablarda ta’lim mazmuni mavjud ilmiy-tarixiy manbalar asosida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Somoniylar davri, ta’lim, tarbiya, maktab, madrasa, qorixona, xonaqoh, daloilxona, rabot, olimlar uyi.

В статье на основе имеющихся научных и исторических источников исследуется система образования и воспитания, а также содержание школьного образования в период Саманидов.

Ключевые слова: период Саманидов, образование, воспитание, школа, медресе, корихана, ханака, свидетельства, работа, дом ученых.

In the article, on the basis of the available scientific and historical sources, the system of education and upbringing, as well as the content of school education in the period of the Samanids, is investigated.

Key words: Samanid period, education, upbringing, school, madrasah, korikhan, khanaka, testimonies, work, house of scientists.

Kirish. O‘z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondashish, o‘tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g‘oyalarini xalq hayotiga tadbiq etish kabi ulug‘ ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda o‘zbek va boshqa qardosh xalqlarning milliy shakllanishi va rivojlanishini zamon talablariga mos keladigan ta’lim – tarbiya tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. O‘zbekiston hududida ming yillar davomida qanchadan-qancha davlat, tuzumlar, urf-odat almashdi. Har bir yangi paydo bo‘lgan din, mafkura o‘tmish haqida o‘ziga mos madaniyat va afsonalar yaratdi, eskilari esa asta-sekin unutilib ketdi. Ammo bizgacha yetib kelgan rivoyat va afsonalar, shahar va saroy qoldiqlari, ular haqidagi tasavvur xalqimiz o‘tmishi buyuk bo‘lganidan dalolat beradi. Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma’naviy yuksalishini ta’minlovchi ta’lim–tarbiya, ma’naviyat va ma’rifat kabi tushunchalar mavjud bo‘lib, ular pedagogika sohasidagi o‘zgarishlarni jamiyat taraqiyoti bilan bog‘liq holda o‘rganishni talab etadi.

Ilmiy-tarixiy manbalarda ko‘rsatilishicha, Movarounnahr hududida maktablar, ta’lim tizimi, yozuv va alifbo qadimiy tarixga ega bo‘lib, ota-onalar o‘z farzandlarini yoshligida savodli, o‘qimishli, o‘qish va yozishga qodir bo‘lib, biror hunar yoki san’atni egallay olishlari uchun maktabga yuborilgan. Zardushtylarning ta’limotida agar ota-onalari bolani maktabga yubormagan bo‘lsa, bu katta gunoh hisoblangani ko‘rsatilgan. So‘g‘diylar ham besh yoshidan bolalarini maktablarga jo‘natganlar. Voyaga yetib, ma’naviy va irodaviy sifatlar shakllangandan keyin, yoshlarni savdo-sotiq ishlarni o‘rganish uchun kasb-hunar ta’limi muassasalari rivojlangan xorijiy mamlakatlarga yuborilgan.

Asosiy qism. Movarounnahrda yettinchi asrdayoq hunarmandchilik va san’atni o‘rgatiladigan maxsus kasb-hunar maktablari vujudga kelgan edi. Bu hudud xalqlari o‘zlarining yuksak aql-zakovati bilan turli kasb-hunarlarni oson egallaganlar, ularning ijobjiy ta’siri boshqa xalqlar madaniyatining yaxshilanishiga yordam bergen. Markaziy Osiyoni arablar istilosidan oldin ham Balx, Hirot, Buxoro va Samarqand shaharlari dunyoda mashhur bo‘lgani ham yuqorida fikrni isbotlaydi. Balx va Marv shaharlari Arab istilosidan oldin (651-y.) ilmiy-adabiy markazlariga aylangan edi.

Marv, Balx, Xorazm, Samarqand va Buxoroda ilm-fan va adabiyot, ayniqsa, tabiiy fanlarning yetuk namoyondalari Abbosiy xalifalar darborida xizmat qilganliklari ham arab istilosidan oldin maktablar shakllangan va rivojlanganidan dalolat beradi. Aynan shu maktablarda din va marosim asoslarini o‘rganish bilan birga axloqshunoslik va tabiatshunoslik kabi fanlar ham o‘qitilgan. Arab xalifalari bularning barchasidan xabardor edilar. Xalifa Mansur (754-775) birinchilardan bo‘lib, Xuroson va Movarounnahrdagi mahalliy maktablarga alohida e’tibor qaratgani ham bejiz emas edi. Shuning uchun u eng yaxshi mahalliy olimlarni o‘z saroyiga ba’zilarini maslahatchi, ba’zilarini hokim sifatida taklif qiladi. Akademik V.V.Bartoldning ma’lumot keltirishicha Ma’mun xalifaligi davrida (813 - 833) Somoniylar sulolasi vakillaridan biri Misrning Iskandariya shahriga hukmdor (hokim) qilib yuborilgan [1, 272].

Shunday qilib, Xuroson va Movarounnahr Sharq xalqlarining nazariy va amaliy bilimlarining yuqori darajada rivojlanishida muhim va samarali rol o‘ynagan, deb aytishimiz mumkin.

Arab xalifalari xalifat poytaxtini gullab-yashnayotgan shaharga, ilm-fan va adabiyot markaziga aylantirishga intilganlar. “832-yilda xalifa Ma’mun yordamida Bag‘dod shahrida maktab ochildi va unda dars beradigan o‘qituvchilarining ko‘pchiligi Xalifalik va mustamlakalarga bo‘ysunuvchi davlatlardan edi” [1, 273]. Ilk madrasa mudarrislari Bag‘donna ta’lim olganlar. Samarqand va Buxoro Somoniylar poytaxtiga

aylangach, bu shaharlarda yetuk murabbiylarni tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Arab tili va adabiyotidan dars beradiganlar Bag‘dodda yoki Xalifalik tasarrufidagi shaharlarda ta’lim olganlar. Buxoro, Samarqand, Marv va Xorazm shaharlarida aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash amlga oshirildi. Markaziy Osiyoni arablar bosib olganidan so‘ng maktab va madrasalar hayotida, ta’lim va tarbiyada jiddiy o‘zgarishlar yuz bergenini aytib o‘tish lozim. Avvalo, islam mafkurasi ta’lim va tarbiya tizimiga kirib, ta’lim mazmuniga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Endi zardushtiylik va buddaviylik dirlari o‘rniga Islom qoidalari va qonunlari o‘rgatila boshlandi.

So‘g‘d alifbosi o‘rniga asta-sekinlik bilan arab alifbosi joriy etildi. Tarixchi Narshaxiyning keltirishicha maktablarning aksariyati masjidlarda faoliyat ko‘rsatilgan. Bundan kelib chiqadiki, maktablar yakka tartibda o‘qitildi. Ba’zi mullalar masjidlarda dars bergenlar. Muvaffaqiyatli talaba boshqalarga dars berishi mumkin edi. Mulla nozir vazifasini bajarar edi [2, 273]. Darhaqiqat, o‘scha davrlarda bunday harakatlar joiz edi. Masalan, katta qishloqlarda ikki-uchta masjid bo‘lgan va shubhasiz, bu masjidlarda maktablar ham faoliyat ko‘rsatgan. Shunday qilib, Somoniylar davrida milliy maktablar shakllandi. Bu esa shaharlarda madrasalarning ochilishiga imkon yaratdi. Albatta, bu zamон talabi edi. Arab xalifasi istilosidan so‘ng Xuroson va Movarounnahr shaharlarida boshlang‘ich maktab va madrasalarni tashkil etish bilan jiddiy shug‘ullangan. Bu davrda maktablar uchun qobiliyatli o‘qituvchilarni tayyorlash zaruriyati vujudga keldi. Eng avvalo, o‘tmish maktablari tajribasidan foydalanimlib, o‘qitishga tajribali kadrlar jalb etildi. O‘qib, yoza oladigan odamlar o‘qituvchi sifatida qabul qilindi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Balxda, ya’ni xalifalikning Sharqiy qismida dastlabki madrasalardan biri ochilgan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida keltirilishicha talabalarga o‘z eshiklarini ochgan Buxorodagi birinchi madrasa Farjak deb nomlangan. Ammo 937-yilning may-iyun oylarida Buxoroda yuz bergen juda kuchli yong‘in natijasida bu madrasa yonib, kulga aylangan: “....Olov osmonda bulutdek suzib yurgan. “Ko‘yi bikor” — “Qizlar ko‘chasi”, bozorning timchalari, Madrasayi Forjak, kovushdo‘zlar timi, sarroflar va bazzozlar bozori, (xullasi) Buxoroning ana shu tomonida to anhor labiga borguncha nimaiki bo‘lsa hammasi kuygan...” [3, 27].

Somoniylar davrida Buxorodagi Jo‘yi Mo‘lyion mahallasi ta’lim-tarbiyaning asosiy markazlaridan biri hisoblanib, ilm-fan, pedagogik fikr va ma’rifatning rivojlanishi va gullab-yashnashiga katta hissa qo‘shgan. Somoniylar amirlari Ismoildan boshlab to No‘hgacha bu masalaga alohida e’tibor berib, o‘z avlodini ma’rifatlari qilish uchun katta sa’y-harakatlar qildilar. Bu mintaqa maktablari bevosita davlat nazoratida bo‘lib, amirlar ta’lim darajasini yanada yuksaltirishga harakat qildilar. Muqaddasiyning qayd etishicha, o‘rta asrlarda Movarounnahrda xususiy madrasalar ham faoliyat ko‘rsatgan. Bu madrasalarga, avvalo, yuqori martabali din arboblari asos solgan. Masalan, Somoniylar davrida Abul Mansur Moturidiy va Abulqosim Samarcandiy ana shunday madrasalarning egalari bo‘lgan.

Bu davrda Samarcand taraqqiy etgan shaharlardan biri hisoblangan. Samarcandda yirik maorif, ilmiy va madaniy markazlar mavjud edi. Ko‘pgina manbalarga ko‘ra, IX-X asrlarda bu yirik shaharda 17 dan ortiq madrasa faoliyat ko‘rsatgan. Masjidlarga biriktirilgan boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. Professor A.Muxtorovga ko‘ra Samarcand madrasasida turli fanlardan taniqli shaxslar va atoqli mutafakkirlar, jumladan, Samarcand madrasasining mashhur ustozlari Abulqosim Hakim Samarcandiy, Abul Mansur Muhammad Moturidiy Samarcandiy, Abulfatoh Said Samarcandiy, Asriddin Foze Samarcandiy, Ashraf ibn Muhammad Samarcandiy va boshqalar dars bergenlar [2, 272].

Ta’lim va tarbiyaning o‘z qoidalari bor edi va bu qoidalarga ham ustozlar, ham talabalar qat’iy rioya qilishlari lozim edi. Yuqorida ta’kidlanganidek, dastlabki o‘qish o‘z ona qishlog‘i yoki shaharchasida yoki uyga yaqin joyda boshlangan, katta bo‘lgach, ilm olish uchun mashhur madrasalar joylashgan yirik ilm va madaniyat markazlariga borib, unda o‘qishni davom ettirganlar. Bilim olishning yana bir usuli taniqli olimlar boshchiligidagi ko‘plab bahs va munozaralarda ishtirok etish orqali amalga oshirilgan.

Maktab va madrasalarga oid ko‘pgina o‘rta asr manbalarida Somoniylar davringin atoqli olimlari bilan bir qatorda amirlar, vazirlar va hokimlar turli fanlardan, asosan, she’riy ta’lim-tarbiyada ham dars bergenligi haqida ma’lumotlar bor. Ismoil Somoni, uning nabirasi Nasr II, vazirlari Balamiy, Jayhoni, Utbiy va boshqalar o‘quvchilar bilan axloq darslarini olib borganlar.

Samarcandda ilohiyot ilmi rivoji davrida shaharda bir necha e’tiborli mutakallimlar guruhi faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ular orasida donishmandlar (hukamo) guruhiga mansub Abulqosim Hakim Samarcandiy ijodiga qiziqish katta edi. Ikkinci guruhda Abu Bakr Juzjoniy maktabi namoyandalari – Abu Abdulloh ibn Abu Bakr Juzjoniy, Abu Mansur Moturidiy, Abulhasan Rustufag‘niy, Abu Salama Samarcandiyalar bor edi. Uchinchi guruhni esa iyodiylar sulolasini vakillari – Abu Nasr Iyodiy, uning farzandlari Abu Ahmad va Abu Bakr Iyodiyalar tashkil etardi. Bu guruhlar o‘rtasidagi bahsler turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ldi va bu kalom ilmi rivojiga ijobiy ta’sir etdi.

“Somoniylarning mashaqqatli mehnati tufayli ilm-fan, maktab, ta’lim va pedagogik fikrdagi katta miqdordagi meros ikkinchi marta qayta tiklandi” [4, 183]. Barcha notinchliklar, iqtisodiy va siyosiy

hayotning beqarorligi, uzoq davom etgan qonli urushlar va fuqarolik fitnalariga qaramay, ajdodlarimiz bizga o‘z maktablari, ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrni merosi sifatida qoldira oldilar. IX-X asrlarda maktablar va pedagogik fikrlarining paydo bo‘lishi siyosiy, mafkuraviy asosga ega bo‘lib, o‘sha davrning madaniy ehtiyojlariga ham javob berar edi. “Ma’lumki, Samoniylar sulolasi ajdodlar sivilizatsiyasining tiklanishiga g‘oyat katta tarixiy hissa qo‘shgan” [5, 4].

Abu Rayhon Beruniy “Osorul-boqiya” asarida Xorazmni fath etgan Qutayba qadimgi xorazmiy tilidagi bitiklarning barchasini yig‘ib yoqishni buyurgani, bu tilni biladigan olimlarni qatl etganini yozib qoldirgan. Shu davrdan boshlab Xorazm xalqi bilimsiz va savodsiz bo‘lib qoldi.

Muhokama va natijalar. Samoniylar davridagi o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish joylari turli xil bo‘lgan, shu jumladan:

1. Boshlang‘ich maktablar.
2. Jamoa masjidlari.
3. Madrasa.
4. Kutubxonalar.
5. Do‘konlar.
6. Xonaqoh - dervishlar maskani.
7. Sufa-masjid, madrasa yoki uy oldida keng ko‘tarilgan joy, bino ichida, hovlida joylashgan.
8. Korvonsaroy va rabotlar.
9. Olimlarning uylari.

Boshlang‘ich ta’lim. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, oilada ta’lim va tarbiya bolaning tug‘ilishidan boshlangan. Ota-onalar o‘z bilim va ma’lumotlari doirasida farzandlariga o‘qish-yozishni o‘rgatishga intilib, mumtoz adabiyot she’rlarini yodlatishgan. Ishonch bilan aytish mumkinki, ko‘plab bolalar o‘qishni va yozishni bilgan holda boshlang‘ich maktabga borgan.

Boshlang‘ich ta’lim muqaddas Qur’oni Karimni o‘rganishdan boshlangan. Mashg‘ulotning bu davri, asosan, 10 poragacha davom etgan. Boshqacha qilib aytganda, Qur’on oyatlarini yoddan bilib olish orqali o‘qituvchilar bolalarni hadislarni tanishtirish va o‘qish uchun tayyorladilar.

Somoniylar davrida boshlang‘ich maktablarda maxsus o‘quv dasturlari tuzildi. Masalan, yozishni o‘rgatish, Qur’onni yod olish, tajvid – Qur’onni orfoepik o‘qish va badiiy adabiyotni o‘qish dasturlari mavjud edi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish uch qismga bo‘lingan:

1. Yozish va imlo.
2. Hadis-payg‘ambar va uning sahabalari haqida hikoyalar.
3. Xutbalar va ko‘rsatmalar.

Masjidlar nafaqat diniy marosimlarni o‘tkazish - asosan namoz o‘qish uchun, balki ta’lim va tarbiya berish maskaniga aylangan. “Somoniylar davrida Movarounnahr va Xuroson jamoa masjidlari hadislarni o‘qish, tushuntirish va muhokama qilish, Qur’oni Karim va va’zlarni o‘qish va sharhlash uchun uchrashuv joylariga aylangan” [2, 273].

Madrasa. Somoniylar davri hukmdorlari madrasa faoliyatiga jiddiy e’tibor qaratganliklari bois bu davrda Xuroson va Movarounnahrning yirik shaharlarda ko‘plab madrasalar mavjud edi. Ushbu madrasalar ham davlat tomonidan, ham shaxslarning tashabbusi va xohishi bilan qurilgan. U yerda mingdan ziyod o‘quvchi ta’lim oldi. Ushbu madrasalarda ijtimoiy fanlarning eng yaxshi ustozlari va olimlari dars bergen. Madrasalarning aksariyati Somoniylar poytaxti - Buxoro shahrida va Samarqand, Nishapur, Juzjon, Bust, Marvrud, Balx kabi yirik yirik shaharlarda bo‘lgan.

IX-XI asrlarda faoliyat ko‘rsatgan Buxorodagi **Abu Hafs Kabir** madrasasi o‘z zamonasida mashhur o‘quv dargohlaridan sanalgan. As Sadatiy “Tarix ud duval” nomli asarida Imom Abu Hafs Kabir al-Buxoriyning madrasasi islom olamining turli o‘lkalaridagi olimlar orzu qilgan madrasa bo‘lganligini ta’kidlagan. As-Samoniyning aytishicha, Hazrat Abu Hafs juda ko‘p olimlarni tarbiya etganlar. Horis ibn Abul Vafo al-Buxoriy, Muhammad ibn Ahmad ibn Hafs az Zabarqon Hazrat Abu Hafs shogirdlaridir [6, 27].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Abu Hafs Buxoriy eng mashhur hanafiy ulamolari va huquqshunoslaridan biri hisoblanib, Samoniylar davlatining siyosiy, ma’naviy va ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynagan. Shu ma’lumotlarga tayanib aytish mumkinki, Abu Hafs madrasasi Samoniylar davridagi ilk oliy islom madrasasi bo‘lgan. “Buxoroning mashhur olimlari bu madrasada dars bergenlar” [2, 272].

Farjak madrasasi. Ushbu madrasa Buxoro shahrining Farjak nomli mahallasida joylashganligi sababli uning nomini olgan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida keltirilgan. Unga ko‘ra Buxoro shahridagi “Farjak” madrasasining 937-yilda yonib ketganligi yozilgan [3, 27]. Lekin samarqandlik mashhur olim Imom Moturidiy ta’limni shahardagi “Raboti G‘oziyon” madrasasida Muhammad ibn Fazl Balxiydan olganliklari manbalarda tasdiqlangan. U kishining 931-yilda vafot etganliklarini e’tiborga olsak,

Samarqanddagi ushbu madrasa “Farjak” madrasasidan ham oldin tashkil topganligi ayon bo‘ladi. Somoniylar davrida Buxoro va Samarqand shaharlaridan tashqari Bayhaqiy madrasasi, Ja’fari Nishopuriy madrasasi, Haddod madrasasi, Abu Is’hoq Bastomiy madrasasi, Abu Aliy Samarqandiy madrasasi, Ibn Favraq madrasasi kabi yirik ilm - fan markazlari ham faoliyat ko‘rsatgan.

Olimlar uyi. Olimlarning uylari ilmlarni o‘rganish markazlaridan biri va mashhur islom ulamolari uchun yig‘iladigan joy hisoblangan. Bunday o‘quv markazlari Somoniylar davlatining ko‘pchilik shaharlarida mavjud bo‘lgan. Odatta buyuk allomalarning uylari olimlarning uylariga aylantirilar edi. Olimlar, yozuvchilar va ilmga chanqoq kishilar ana shunday joylarda to‘planib, ilmiy-adabiy to‘garaklarni tashkilashtirar edilar. Bunga misol Abulabbos Zariri Balxiy, Abunasr Muhammad Samarqandiy, Abubakr Ahmad ibn Ibrohim Ismoiliy, Hakim Nishopuriy, Abuhamid Xalaf, Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso, Roziy, Abdulhasan bin Ahmad Ismoil Buxoriy, Abu Hafs Kabir Buxariy kabi shaxslarning uylariga ko‘plab olimlar, havaskorlar va o‘z ishining muxlislari, talabalar to‘planib, suhabatlar, babs-munozaralar uyuştirar edilar.

Do‘konlar. Aksariyat olimlar o‘z oilalarini boqish maqsadida biron ish bilan band bo‘lib, ish joylarida, vaqtadan unumli foydalaniib, talabalarga dars berish bilan shug‘ullanganlar. Olimlarning ko‘pchiligi qandaydir hunar bilan shug‘ullanib, mehnat mahsulotlarini do‘konlarda sotishgan. Mavarounnahr shaharlarida bunday do‘konlar ko‘p bo‘lgan. Masalan, islomning shofeiy olimi Abubakr Muhammad ibn Abdulloh Sigi Nishopuriyning Nishopurdagi do‘koni hadis olimlari uchun yig‘iladigan joy edi. Abu Abdulloh Saraxsiy ham Buxoroning Farjak mahallasida o‘z do‘konida talabalar bilan ishlagan. Abu Muhammad Abdulloh ibn Muhammad bin Nasr Roziy qog‘oz ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanib, o‘z do‘konida Samarqandning Varroqon mahallasida hadis bo‘yicha o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlar olib borgan.

Karvonsaroyslar va rabotlar. Boshqa o‘quv yurtlari karvonsaroy va rabotlar hisoblangan. Karvonsaroyslar asosan karvonlar, sayohatchilar uchun dam olish joyi va karvonlar uchun yig‘iladigan joy bo‘lgan. “Ba’zan rabotlar karvonsaroyslar deb atalgan, lekin haqiqatda rabotlar davlat chegarasidagi nuqtalar bo‘lib, ularning vazifasi dushman hujumlarini daf qilish va chegara va tashqi ishlarni bajarishdan iborat edi” [2, 274]. Bu karvonsaroy va rabotlarda karvon haydovchilari bilan birga savdogarlar, harbiy xizmatchilar, olimlar, yozuvchilar va talabalar ham to‘planib, ilmiy-adabiy uchrashuvlar tashkil qilar edilar.

Xonaqoh. Mavarounnahr va Xuroson shaharlarida sufiylar, darvishlar va zohidlar, voizlar ko‘plab xonaqolar va maxsus joylarga ega edilar. Xonaqoh qoshida maktab va madrasalar bo‘lib, ular samarali va faol faoliyat ko‘rsatgan. Sosoniylar davridagi dastlabki xonaqohlar Farg‘ona, Xatlon, Juzjon, Marvrud, Samarqand, Hirot, va Gurjiston shaharlarida qarmatiylar tomonidan qurilgan. Samarqand shahrining Jobir mahallasida Abumusa ibn Imron ibn Abduvahhab Samarqandiy xonaqohi, Haddod ibn Hibbon Bustiy xonaqohi va bir necha mashhur xonaqohlar hozirgi Buxoro, Samarqand, Balx va Hirot shaharlarida barpo etildi. Bu xonaqohlarda mashhur olim va ilohiyotchilar ilohiyot, tasavvuf ta’limoti, notiqlik va xattotlik, falsafa va boshqa fanlardan saboq bergen. Bu xonaqohlar keyinchalik so‘fiyolar ta’limtoning tarqalishiga ham hissa qo‘shgan.

Somoniylar davri maktablarida ta’limning asosiy vazifasi Qur’onni yod olish, arab tili grammatikasi, ilohiyot va boshqa diniy fanlarni o‘rganishdan iborat edi. “Musulmon Sharqining ba’zi maktablarida, jumladan, savtiy maktablarida, dunyoviy fanlarga ham e’tibor berilgan, lekin shunday bo‘lsa-da, e’diqodchilarni tarbiyalash avjida edi” [7, 107].

Maktablarda majburiy o‘quv reja va dastur mavjud emas edi. Maktablarda ta’lim individual shaklda tashkil etilgan. O‘g‘il bolalar maktablarida o‘rganiladigan fanlar quyidagilardan iborat edi:

1. Arab alifbosining o‘rganilishi.

2. “Haftiyak”ni o‘rganish. Bu Qur’onning yetti qismidan bir qismini yod olishdan iborat edi. “Haftiyak”ni o‘rganish 2-3 oy davom etadi.

3. “Chahor kitob” (“To‘rt kitob”)ni o‘rganish. Bunda islomning asosiy tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olgan to‘rt kitob Sharofiddin Buxoriyning “Nomi haq”, Qozi Azizuddinning “Bidon”, Jaloliddinning “Muxammad ul- muslimin”, Muxammada ibn Ibrohim Fariduddin Attorning “Pandnoma” o‘qitilar edi.

4. “Chahor kitob”ni o‘rgangach, o‘quvchilar o‘sha davrda yaratilgan asarlarni o‘rgangan.

Maktabda o‘quvchilarga namoz, tahorat va boshqa amallarni bajarish qoidalari o‘rgatilar edi. Bulardan tashqari ba’zi maktablarda to‘rtta arifmetik amal (choramal) o‘rgatilgan. Ayrim xattotlik maktablarida xattotlik o‘rgatilgan. Arab yozuvining qo‘lyozma yozuvi mag‘ribiy, kufiy, nasx va nasta’liqlarga bo‘lingan. Xattotlikni o‘rganish, taniqli asar yozishmalari bilan yakunlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, yozuvni o‘rganish hamma uchun majburiy emas edi. Ta’lim muassasasining yana bir turi **qorixona** deb atalgan. Bu maxsus maktab edi. Bu chiroyli ovoz, rivojlangan xotira va aniq dixsiyaga ega ko‘r bolalarni qabul qilishgan. Qorixona maktabida Qur’on qorilari tayyorlanar edi. Qabul qilingan qoidaga ko‘ra, har bir talaba 3-4 yillik

o‘qish davomida Qur’onning 30 porasini yod olishi kerak edi. Qorixonada ta’lim ikki yo‘l bilan — individual va guruhiy shaklda tashkil etilgan.

Qorixona o‘qituvchilarini qoridomullo va talabalarini qoribachcha deb atashgan. Qorixonani muvaffaqiyatli bitirganlarga Qur’on tilovat qilish mutaxassisligi (qori) berilgan. Qorixonada uzoq joylardan keladigan talabalar uchun yashaydigan turar joylar bo‘lgan. O‘qishni tugatgach, talabaning otasi qoridomullo uchun odatda to‘liq kiyim to‘plami (saru libos) va mazali taom va shirinliklarga to‘la qoplangan dastarxonadan hamda sovg‘alar, naqd pul berar edi. Qoridomullo sovg‘alarni qabul qilib, o‘z shogirdiga Qur’on o‘quvchi sifatida mehnat qilishida katta muvaffaqiyatlar tilab, oq fotiha berar edi. Qorixonlar asosan qadimiy shaharlarda, fan va ta’lim markazlari bo‘lgan Buxoro, Samarcand, Istaravshan, Kulob, Hisor va boshqa shaharlarda faoliyat ko‘rsatgan.

“**Daloilxona** degan yana bir məktəb bor edi” [7, 208]. Bu yerda faqat o‘rta maktabni yoki qorixonani bitirgan o‘g‘il bolalarni qabul qilinar edi. Daloilxona — (arab. daloil - dalillar) - Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridagi eski diniy məktəb bo‘lib, unda dastlab (taxm. 1-2 oy) bolalarga Qur’onning ayrim sura va oyatlari, so‘ngra asosiy kitob - “Daloil ulxayrot” yodlatilgan. Daloilxonada o‘qish muddati aniq belgilanmagan. Qobiliyatli, xotirasi kuchli talabalar kitobni 2-3 oy davomida yod olganlar. Uni tugatganlarning ayrimlari islom dinining targ‘ibotchisi bo‘lishgan.

IX asrlarda butun Xalifalik hududida, jumladan, Xuroson va Movarounnahrda harbiylarni tarbiyalovchi maxsus maktablar - rabotlar tashkil etildi. “Rabotda ular jang san’atiga, davlat chegaralarini himoya qilishga o‘rgatilgan va shu bilan birga diniy, ham dunyoviy fanlardan dars bergenlar” [7, 110].

Shuni ta’kidlash kerakki, IX-X asrlarda Xuroson va Movarounnahr hududlarida shifoxonalar qurilib, bolalar ham o‘qitilgan, ham davolangan. Shuningdek, ularda tibbiyot asoslari va tibbiy bilimlarni amalga oshirish usullari o‘rgatilgan. Bunday shifoxonalarning o‘ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, ular ko‘rish, eshitish va nerv organlari kasalliklari bilan qabul qilingan bolalar bilan shug‘ullangan.

Xulosa. Umuman olganda, Somoniylar davrida ta’limning mazmuni va məktəblarning rivojlanishi haqiqatan ham ta’lim jarayonida ulkan rol o‘ynagan, bu esa ta’lim sohasining yanada gullab-yashnashiga zamin yaratgan.

Adabiyotlar

1. Мирзозаде Х. История таджикской литературы (с древних времен до XIII веков). - Душанбе: “Маориф”,- Кн. 1. 1987. -189с.
2. Мухтаров А. Саманиды: время и место. -Душанбе: Сурушан, 1999. -282 с.
3. Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far Narshaxiy. Buxoro tarixi / Fors-tojik tilidan A.Rasulov tarjiması.– Toshkent: “Fan”, 1966. – В. 84.
4. Маъруф Арифи. Из истории педагогической мысли таджикского народа. Ч. 2, -Душанбе, 1965. - 183с.
5. Курбон Ходжаев. Педагогические взгляды мыслителей таджикского народа в XI веке.- Душанбе, 2004. -250 с.
6. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Маълумотнома. (тўлдирилган, қайта ишланган иккинчи нашр). “Дурдана” нашриёти, 2012 й., 27- бет.
7. Отаконов Т. Очерки педагогической мысли. - Душанбе, 2005. -154с.
8. Халимов А. Воспитание, зарождение школ и педагогической мысли таджиков в эпоху саманидов: автореферат дис. ... доктора педагогических наук. - Душанбе, 2012.- 41 с.

МУНДАРИЖА

Бахтиёр АДИЗОВ. Креатив фикрлашга йўналтирилган таълим технологиялари	5
Ширинбой ОЛИМОВ. Таълимни технологиялаштиришнинг асосий элементи	9
Болта ХОДЖАЕВ. Олий ўкув юртларида муаммоли таълим технологиясини қўллашнинг айрим жиҳатлари.....	15
Nasiba AZIMOVA, Zarina NASIMOVA. O‘qituvchi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt.....	20
Акбар ГУЛБОЕВ. Педагоглар фаолиятини ташхис қилишнинг назарий ва методологик асослари....	26
Qobiljon ABDULLAYEV, Nargiza BOBOMURODOVA. Qadimgi mesopatamiyadagi madaniy-ma’rifiy taraqqiyot sarchashmalari	30
Гулия ҲАБИБОВА, Умида БАҲРИЕВА. Талабаларнинг мустақил иши - таълимни ташкил этишининг етакчи шакли сифатида.....	33
Лола ЭЛИБОЕВА. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг педагогик маҳоратини оширишда интерфаол таълим методларидан фойдаланиш	37
O‘lmas QURBONOVA. O‘zbekiston va Finlyandiya ta’lim tizimi: muammo va istiqbollar.....	42
Гулчехра ИЗБУЛЛАЕВА. Муслиҳиддин Саъдий Шерозийнинг “Гулистон” ва “Бўстон” асари юксак дидактик манба сифатида	46
Gulnoz TOSHOVA. Pedagogik faoliyat va uni takomillashtirishda pedagog mahorati	52
Manzura OCHILOVA. Sharq mutaffakkirlari merosida oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash.....	57
Dildora TOSHEVA. Boshlang‘ich sinflarda “Atrofimizdagi olam” fanidan “Yashil dorixona” mavzusini o‘qitishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	61
Bobomurod JO‘RAYEV. Somoniylar davrida ta’lim tizimi va mazmuni.....	65
Dilfuza RAKHMONOVA. Equirements for preschool education teacher.....	70
Matluba XOJIYEVA. TA’LIM JARAYONIDA AKSIOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	74
Нигина ИСМАТОВА. Оиласда болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланиш усул ва воситалари.....	79
Олимжон АХМАДОВ. Бухорода янги усул мактаблари фаолияти (XIX аср охири XX аср I чораги) .	83
Nilufar RAXIMOVA. Tarbiya va shaxs kamoloti	89
Gulshan SAIDNAZAROVA. Al-Buxoriyning hadislarida tarbiya masalasi	94
Нигора САЙФУЛЛАЕВА. Методика оценки развития экономического мышления у студентов вуза	98
Маърифат УМУРОВА. Мактабгача ёшдаги болаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мусиқанинг ўрни.....	103
Oybek ORTIQOV. O‘quvchi-yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalash mazmuni	109
Феруза РАМАЗОНОВА. Бўлажак ўқитувчиларда касбий эътиқодни шакллантириш педагогик муаммо сифатида	113
Olimjon AHMADOV, Dilnoza ELOVA. Buxoro bosmaxona va nashriyotlariga texnika sohasidagi yangiliklarning kirib kelish tarixidan (1920-1924-yillar).....	116
Madina BAXRAMOVA. Modulli ta’limni joriy etishning muammolari va yechimlari	120
Болта ХОДЖАЕВ, Ситора ШАРИПОВА. Талабаларнинг ўкув– билув фаолиятини активлаштиришда муаммоли таълим имкониятларидан фойдаланиш	124
Shaxlo XALILOVA. Jahon pedagogikasida pedagogik muloqotning zamонавиј uslublari va uning milliy pedagogik muloqot uslublari bilan integratsiyasi	129
Zuxriddin SHERNAZAROV. Abdulla Avloniyning ma’rifiy-pedagogik faoliyati	134
Феруза ЖУМАЕВА. Ўзбек оиласарида ёшларнинг оиласий тарбия ҳақидаги тасаввурларини шакллантириш	138